

**Buxoro viloyati Qorako'l tumanida tashabbusli byudjetlashtirish  
amaliyoti**

**TDIU MMT-86 guruh talabalari**

**Jasur Oxbutayev, Shohruh Boboxonov**

**Annotatsiya:** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-avgustdagi "Byudjet ma'lumotlarining ochiqligini va byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3917-sonli hamda 2021-yil 13-apreldagi "Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5072-sonli Qarorlariga asosan 2021-2023-yillarda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'lar ya'ni tashabbusli byudjetlashtirish natijalari bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** tashabbusli budjetlashtirish, loyihalar, amalga oshirilgan tadbirlar, moliyalashtirilgan takliflar, mablag'larining shakllanish manbalari, tuman mahalliy budjeti, aholining ijtimoiy muammolari va boshqalar.

Mamlakatimizda byudjet tizimida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash maqsadida qilingan chora tadbirlardan biri bu mahalliy byudjet xarajatlarini yo'nalishini belgilashda fuqarolarning ishtirokini ta'minlashdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-avgustdagi "Byudjet ma'lumotlarini ochiqligini va byudjet jarayonida fuqarolarning ishtirokini ta'minlash chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ 317-son qaroriga muvofiq 2019 yildan boshlab tuman(shahar) byudjetlarining qo'shimcha manbaalarining kamida 10 foizini jamoatchilik fikr asosida tashkil etilgan tadbirlarga yo'naltirish joriy etildi. 2021- yil 13 apreldagi Prezidentning "Byudejet jarayonida fuqarolar ishtirokini takomillashtirish qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi PQ 5072 sonli qaroriga muvofiq 2021- yil maydan har bir hududdan 1

tadan tumanda, 2022 yil yanvar oyidan boshlab esa respublikaning barcha tumanlarida mahalliy byudjetning tasdiqlangan umumiy xarajatlarning 5 foizini jamoatchilik fikri asosida yo'naltirish belgilandi. 2021 yil 1 iyuldan jamoatchilik fikri asosida saflanadigan mahalliy byudjetlarning qo'shimcha daromadlari miqdori 30 foiz qilib belgilandi. Biz quyida fuqarolar ishtirokidagi mahalliy byudjetlarni shakllantirishda qilingan ishlarni Buxoro viloyati Qorako'l tumani misolida ko'rib chiqamiz.

Biz quyidagi jadval asosida 2021-2023- yillarda Buxoro viloyati Qorako'l tumanida tashabbusli byudjetlashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar miqdorini yillar kesimida tahlil qildik. Jadvaldan ko'rinib turibdiki Buxoro viloyati Qorako'l tumanida tashabbusli byudjet uchun ajratilgan mablag'lar miqdori yildan yilga o'sib borgan.

**1-jadval**

**Buxora viloyati Qorako'l tumani tashabbusli budjetlashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar miqdori**

(mln so'mda)

T/r	Ko'rsatkich nomi	2021-yil	2022-yil	2023-yil
1.	Yil boshiga qoldiq	-	775.95	934.8
2.	Hisobot davrida "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"ga o'tkazilgan mablag'lar	2 091.9	10 027.4	20 927.2
3.	"Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"dan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan	1 316.0	10 200.0	19 830
3.1.	Bajarilgan ishlar uchun xisobvaraqlardan moliyalashtirilgan mablag'	1 314.1	8 780.6	-
3.2.	Hisobvaraqlardagi qoldiq	-	970.0	-
4.	"Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"da qoldiq mablag'	775.9	934.8	2 032.0

2021 yilda Qorako'l tumani Fuqarolar tashabbusi jamg'armasiga 2091 mln so'm ajratilgan. Ajratilgan mablag'ning 1316 mln so'mi tadbirlarni moliyalashtirish uchun sarflangan. Ajratilgan mablag'ning 775.9 mln so'mi esa jamg'armada qoldiq sifatida qolgan. 2022 yilda esa Fuqarolar jamg'armasiga o'tkazilgan mablag'lar 2021 yilga nisbatan 5 barobar ko'p bo'lgan. 2021 yildagi qoldiq mablag' ham 2022- yil uchun yil boshidagi qoldiq sifatida qo'shilgan. Bajarilgan ishlar uchun moliyalashtirilgan mablag'lar ham 2021- yilga nisbatan 6 barobarga ko'p ya'ni 8.780 mln so'mni tashkil etgan. 2022 yildagi qoldiq mablag' esa 934.8 mln so'mni tashkil qilgan. 2023- yildagi ko'rsatkichlar esa o'tgan ikki yilga nisbatan ancha baland. 2023- yilda tashabbusli byudjet loyihasiga 20.9272 mln so'm mablag' ajratilgan. Bu 2022- yilga nisbatan ikki barobar, 2021- yilga nisbatan 10 barobar ko'p miqdorda tashabbusli byudjet loyihalari amalga oshirilganligini anglatadi.

Quyidagi 2-jadvalda Buxoro viloyati Qorako'l tumanidan uch yil davomida tashabbusli byudjetlashtirish natijasida amalga oshirilgan loyihalarni ko'rishimiz mumkin.

**2-jadval**

**Buxora viloyati Qorako'l tumani tashabbusli budjetlashtirish natijasida amalga oshirilgan tadbirlar**

T/r	Tadbirlar nomi	Moliyalashtirilgan takliflar soni			Sarflangan mablag' (ming so'mda)		
		2021-yil	2022-yil	2023-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
<b>Jami</b>		17	14	20	1 314 100	10 200 000	19 830 000

## *Modern education and development*

1.	Hududiy ichki yo'llar	11	2	5	1 029 000	1 810 000	6 300 000
2.	Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash	2	3	4	101 900	3 090 000	4 300 000
3.	Maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'mirlash va jihozlash	1	6	1	19 600	4 350 000	250 000
4.	Sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va jihozlash	2	3	5	133 700	950 000	4 700 000
5.	Ko'priklarni qurish va tamirlash			1			1 200 000
6.	Ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash			1			680 000
7.	Aholi dam olish maskanlarini qurish va tamirlash			1			700 000
8.	Boshqa talim muassalarni tamirlash va jixozlash	1		1	29 900		800 000
9.	Boshqa tadbirlar			1			900 000

2021- yilda qiymati 13.141 mln so'mlik 17 ta loyiha amalga ohirilgan. Eng ko'p loyiha hududiy ichki yo'llarni tamirlash hissasiga to'g'ri kelmoqda. Qolgan 6 ta loyiha maktablarni ta'mirlash, sog'liqni saqlash hamda maktabgacha ta'lim muassalarini ta'mirlash loyihalari hisoblanadi. 2022- yilda 14 loyiha amalga oshirilgan bo'lib, mahalliy byudjetdan 10.200 mln so'm mablag' ajratilgan. 2022- yilda amalga oshirilgan loyihalar qiymati 2021-yilga nisbatan katta bo'lgan shu sabali loyihalar soni kamroq bo'lsa ham sarflangan mablag' ancha yuqori. 2022- yilda maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'mirlash va jihozlash bo'yicha loyihalar deyarli 50% mablag' jalb qilgan bo'lsa umumtalim maktablarini jihozlash va ta'mirlashga tashabbusli byudjet uchun ajratilgan mablag'ning 30% i sarflangan. 2023-yilda esa qiymati 19.830 mlrd

so'mlik 20 ta loyiha amalga oshirilgan. Ajratilgan mablag'lardan asosan hududiy ichki yo'llarni ta'mirlash va sogliqni saqlash loyohalari moliyalashtirilgan. Oxirgi ikki yilda ham umumtalim maktablarini ta'mirlash va jihozlash moliyalashtirish qiymati bo'yicha 3- o'rinni egallagan.

Quyidagi 3- jadvalda jadvalda Buxoro viloyati Qorako'l tumanida fuqarolar tashabbusli jamgarmasi mablag'larining shakllanish manbalari ko'rsatilgan.<sup>1</sup>

---

<sup>1</sup> <https://openbudget.uz/boards/reports>

**3-jadval**

**Buxora viloyati Qorako'l tumanida Fuqarolar tashabbusli jamg'armasi mablag'larining shakllanish manbalari (mln so'mda)**

<b>Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi mablag'larini shakllantirish manbalari</b>		<b>2021-yil</b>	<b>2022-yil</b>	<b>2023-yil</b>
Tuman mahalliy budjeti tasdiqlangan umumiy xarajatlarning 5 foiz qismi miqdorida ajratilgan mabag'lar		<b>0</b>	<b>8 274.4</b>	<b>10 929.3</b>
Tuman mahalliy budjeti qo'shimcha manbalarning 30 fozi miqdorida ajratiladigan mablag'lar		<b>787.9</b>	<b>1 753</b>	<b>1892.4</b>
Shu jumladan	Erkin qoldiq mablag'lari	<b>44.4</b>	<b>612.8</b>	<b>943.4</b>
	Daromadlarning hisobot choraklari yakunlari bo'yicha aniqlanadigan prognozdan oshirib bajarilgan qismi	<b>743.5</b>	<b>1 140.2</b>	<b>949.0</b>
	Iqtisod qilingan mablag'lar	<b>0</b>	<b>0</b>	<b>1 159.2</b>
Fuqarolar takliflarini barchasini qanoatlantirish		<b>1304</b>		

maqsadida respublika byudjetidan qo'shimcha ajratilgan			
Viloyat maxalliy byudjeti qo'shimcha mablag'lari 30% miqdorida ajratiladigan mablag'lar.			<b>6 946.3</b>
<b>Jami ajratiladigan mablag'lar</b>	<b>2 091.9</b>	<b>10 027.4</b>	<b>21 862.0</b>

Jadvaldan ko'rishimiz mumkinki 2021- yilda ajratilgan 2091 mln so'm Qorako'l tuman mahalliy byudjetining qo'shimcha manbalarning 30 foizi va respublika byudjetidan qo'shimcha ajratilgan 1304 mln so'm hisobiga shakllantirilgan. 2022- yildan boshlab tuman mahalliy budjeti tasdiqlangan umumiy xarajatlarning 5 foiz qismi ham tashabbusli byudjetga yo'naltirilgan. Umumiy xarajatlarning ajratilgan 5 foiz qismi tashabbusli byudjet jamg'armasining asosiy qismini tashkil qiladi. 2022 yilda tashabbusli byudjet jamg'armasiga 10 mlrddan ortiq mablag' yo'naltirilgan bo'lsa shundan 8 mlrddan ortig'i tasdiqlangan umumiy xarajatlardan ajratilgan 5 foiz mablag'ga to'g'ri keladi. 2023-yildagi tashabbusli byudjet jamg'armasi tasdiqlangan xarajatlarning 5 foizi, qo'shimcha manbaalarning 30 foizi, erkin qoldiq manbaalaridan tashqari viloyat mahalliy byudjeti qo'shimcha mablag'lari 30% miqdorida ajratiladigan mablag'lar hisobiga shakllangan. 2023- yilda Viloyat mahalliy byudjeti qo'shimcha mablag'laridan ajratilgan miqdor 6946.3 mln so'mni tashkil etgan va faqat shu yilda tashabbusli byudjet uchun berilgan. 2023- yilda tashabbusli byudjet jamg'armasiga 20.9272 mln so'm ajratilgan.

**4-jadval**

**Buxora viloyati Qorako'l tumani tashabbusli budjetlashtirish natijasida amalga oshirilgan loyihalar tarkibi**

<b>T/r</b>	<b>Tadbirning qisqacha mazmuni (sohasi)</b>	<b>Jami to'plagan ovozlar soni</b>	<b>Moliyalashtirish uchun ajratilgan mablag' miqdori (ming so'm)</b>
<b>2021-yilda</b>			
1.	Istiqlol MFYning tamirtalab 0.061 km qismini shag'allashtirish	605	12 000
2.	Qozon MFYning tamirtalab 1.1 km qismini shag'allashtirish	525	200 000
3.	Regixaydar MFY Charmgar ko'chasining tamirtalab 0.51 km qismini shag'allashtirish	471	100 000
4.	Arna MFYning tamirtalab 0.07 km qismini shag'allashtirish	352	15 000
5.	Osiyo MFYning tamirtalab 0.45 km qismini shag'allashtirish	309	100 000
6.	Quvacha MFYning tamirtalab 0.055 km qismini shag'allashtirish	245	12 000
7.	Tuman tibbiyot birlashmasi terapiya bo'limi tamirlash-jihozlash	195	74 000
8.	Regixaydar MFY Boboisomi qishlog'ining tamirtalab 0.508 km qismini shag'allashtirish	172	100 000



## *Modern education and development*

9.	Maxallashayx MFY Mirishkor qishlog'i markazi tamirtalab qismini shag'allashtirish	130	30 000
10.	Quvacha MFYning 49-sonli maktab yo'lini 0.055 km qismini shag'allashtirish	108	12 000
11.	Chovli MFY chovli qishlog'i tamirtalab 0.5 km qismini shag'allashtirish	104	100 000
12.	Tuman tibbiyot birlashmasi Gemodializ bo'limiga UPC xarit qilish va o'rnatish	57	60 000
13.	9-sonli maktabni tamirlash	39	100 000
14.	15-sonli DMTTning atrofini panjara bilan o'rash	33	20 000
15.	Eski Qala MFYning namirtalab 1.1 km qismini shag'allashtirish	15	200 000
16.	Baxim MFY Baxim qishlog'i tamirtalab 0.9 km qismini shag'allashtirish	12	200 000
17.	14-sonli maktabda kutubxona tashkil etish	7	12 000
<b>2022-yilda</b>			
1.	47-sonli maktabni tamirlash	1518	910 000
2.	34-sonli maktabni tamirlash	1479	820 236
3.	15-son MTTni tamirlash	1129	915 624.1
4.	18-son MTTni tamirlash	936	244 268.8
5.	16-son MTTni tamirlash	934	697 235.4
6.	Tojikent MFYning asosiy yo'llarini tamirlash	934	829 369.7
7.	14-son MTTni tamirlash	922	844 468.9

<b>2022-yil 2-mavsum</b>			
8.	Tumanda umumtalim maktablarining moddiy texnik bazasini rivojlantirish uchub	2982	1 162 798
9.	Tuman tibbiyot birlashmasi kirish qismlarini tamirlash	2640	489 250
10.	Tuman tibbiyot birlashmasi moddiy-texnik basasini mustaxkamlash (potranaj sumka xarid qilish)	2054	148 000
11.	Qulonchi MFYdagi Shoh ko'chasini asfatlashtirish	2040	960 000
12.	9-sonli MTMni kapital tamirlash	2031	1 050 000
13.	Tuman tibbiyot birlashmasi moddiy-texnik basasini mustaxkamlash (kir mashina va dazmol	2031	297 345.8
14.	22-son DMTTni tamirlash va jixozlash uchun	1852	500 000
<b>2023-yilda</b>			
1.	Qorako'l tuman xalq talimi bo'limiga qarashli 2-sonli maktabning moddiy-texnik bazasini to'liq yangilash. Zamanoviy jihozlash.	4641	1 150 000
2.	Qorako'l tuman xalq talimi bo'limiga qarashli 15-sonli maktabning moddiy-texnik bazasini to'liq yangilash. Zamanoviy jihozlash.	4296	1 100 000
3.	Qorako'l tuman xalq talimi bo'limiga qarashli 8-sonli maktabning moddiy-texnik bazasini to'liq yangilash. Zamanoviy jihozlash.	3903	1 000 000
4.	Qora ko'l tuman xalq talimi bo'limiga qarashli 1-sonli maktabning moddiy-	3888	1 050 000

	texnik bazasini to'liq yangilash. Zamanoviy jihozlash.		
5.	Markaziy kasal xonadagi raqamli rengen uchun DETEKTOR zararsizlantirish bo'limi uchun Avtoklav, ichki dorixobna uchun Distelyator qabulxona bo'limi uchun portativ Kolonoskop FGDC aparatlarini harid qilish.	3367	1 000 000
6.	Qorako'l tumani tibbiyot birlashmasiga qarashli "Ziyorat" MFY mehnatobod OSHPni kapital tamirlash ishlari uchun.	3050	900 000
7.	Mirob MFY Fozil xo'ja qishlog'i orqali kandim gaz koniga va maxalliy aholining issiq suvga olib boruvchi ichki yo'lning Omon Bobo qabristoni oldidagi ko'priknini tamirlash.	3048	1 200 000
8.	Mallaishayx MFY Obod mirishkor qishlog'ini 1000 asfalt qoplamasini yopishtirish.	3013	1 200 000
9.	Qorako'l tumani tibbiyot birlashmasiga qarashli "Band boshii" MFYdagi Arabxona OSHPni Kapital tamirlash ishlari uchun	1749	1 200 000
10.	Qorako'l tumani Do'rmon OSHPning Nurofshion filiali yangidan qurish	1472	1 000 000
11.	Qorako'l tumani tibbiyot birlashmasiga qarashli "Quvachi" MFYdagi 57-sonli OP binosi rekonstruksiya qilish va qo'shimcha xonalar qurish ishlari uchun.	1408	600 000

12.	Mallaishayx MFY Obod mirishkor qishlog'ini asosiy suv arig'ining 2 km qismini betonlashtirish.	1333	680 000
13.	Qorako'l tumani markaziy dehqon bozori yonidagi ko'cha chorraxasida avtamashinalarni belgilanmagan joyda qurishi natijasida muntazam tirbandlik va fuqarolarga noqulaylik yuzaga kelmoqda. Ushbu noqulayliklarni bartaraf etish uchun ushbu choraxaga qoida buzarliklarni qayt qiluvchi 4 dona video kameralarni hamda tuman markazidagi Ulug'bek ko'chasidagi avtomashinalar xarakat tezligini qayd qiluvchi radar moslamasini o'rnatish uchun Openbyudgetdan mablag' ajratib fuqarolarimiz xavsizligini taminlab beringlar.	1273	900 000
14.	Qorako'l tumani markazidagi Yoshlar istiroxat bog'ining atrofini to'liq o'rash, ichki yo'llarni tamirlash yangi o'rindiqlar xamda tungi yoritqich o'rnatish	1193	750 000
15.	19-sonli boxcha uchun zarur jixozlar (kondissonerlar, tilivezor, muzlatkich kompyuter, gilamlar, kiryuvish mashinasi, o'yinchoqlar...) sotib olish	1187	250 000
<b>2023-yil 2-mavsum</b>			
16.	G'arg'abog'i MFY Mirobariq qishlog'ining 2500 metiriga asfalt qoplamasini yotqizish	7143	1 320 000

17.	Quyiyangibor MFY Kulva qishlog'ining 2900 yo'liga asfalt qoplamasini yotqizish	6675	1 320 000
18.	Mallaishayx MFY Obod mirishkor qishlog'ining 2 km asfalt qoplamasini yotqizish	6146	1 320 000
19.	Quyiyangibozor MFYdagi bolalar va o'smirlar sport maktabi uchun suniy qoplamali futbol maydoni qurish	6035	1 320 000
20.	Xo'ja kon MFY Xo'jakon qishlog'ining 2000 metiriga asphalt qoplamasi yotqizish. Maxalladagi axolining muammolarini bartaraf etish.	4232	800 000

4- jadvaldan ma'lumki 2021-yilda Qorako'l tumanida asosan hududiy ichki yo'llarni ta'mirlash ishlari amalga oshirilgan. Eng ko'p ovoz to'plagan loyiha Istiqlol MFYning tamirtalab 0.061 km qismini shag'allashtirish uchun to'plangan bo'lib umumiy ovozlar soni 605 tani tashkil qilgan. Eng kam ovoz to'plagan loyiha esa 7 ta ovoz bilan g'olib bo'lgan. 2022- yilda maktab hamda maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'mirlash va jihozlash ishlari bo'yicha loyihalar eng ko'p amalga oshirilgan bo'lsa Loyihalar uchun ovoz yig'ishlar soni o'tgan yilga nisaban deyarli 2 barobarga ortgan. 2022-yilda bitta loyiha eng ko'p to'plangan ovoz 2982 ta eng kam ovoz 922 tani tashkil qilgan. 2023- yilda bajarilgan ishlar ko'lami o'tgan 2 yilga nisbatan ancha kengligini ko'rishimiz mumkin. 2023- yilda eng ko'p ovoz to'plagan loyiha 7143 ta ovoz yig'gan bo'lsa eng kam ovoz 1187 tani tashkil qilgan. Bundan ko'rinib turibdiki ovoz beruvchilar soni ham yildan yilga oshib borgan masalan 2021 yilda taxminan 3 ming kishi ovoz bergan bo'lsa 2023- yilda ovoz beruvchilar soni 100 ming kishidan oshiqni tashkil qilgan. 2021-2023 yillar davomida loyihalar uchun sarflanayotgan mablag' miqdori ham oshib borgan. 2021- yilda bitta loyiha uchun eng

ko'p sarflangan miqdor 200 mln so'mni tashkil qilgan bo'lsa 2022-2023 yillarda bu mablag' 1 mlrddan oshiqni tashkil qilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak Buxoro viloyati Qorako'l tumanida tashabbusli byudjet jarayoni yildan yilga takomillashib borayotganini yuqoridagi ma'lumotlardan bilishimiz mumkin. Hozirki kunda fuqarolar tashabbusli byudjet jarayonida faol qatnashayotganligi va unga befarq bo'lmayotganligi bu loyihani ahamiyatini ko'rsatadi. Loyiha nafaqat jamiyatdagi muammolarni hal qilish uchun balki insonlarni bir maqsad yo'lida birlashishga birga harakat qilishga undashi ham bir yutug' deyishimiz mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ваҳобов АВ, Маликов ТС. Молия. Дарслик/Тошкент Молия институти. Тошкент:“Шарқ. 2010;804.
2. Malikov, T., and Haydarov NH. Byudjet. "O'quv qo'lanma." Toshkent:“Iqtisod-moliya 84 (2008).
3. TS Malikov, O Olimjonov. Moliya. - O'quv qo'lanma. Toshkent: Iqtisod-moliya, 2018
4. Malikov T, Haydarov N. Budjet daromadlari va xarajatlari. O'quv qo'lanma, Toshkent:“IQTISOD-MOLIYA. 2007.
5. Маликов ТС. Ҳайдаров НҲ “Молия: умумдавлат молияси”. Ўқув кўлланма. 2009.
6. Malikov TS. Byudjet-soliq siyosati. T.:“Iqtisod-moliya. 2019.
7. Malikov, T. S., & Olimjonov, O. O. (2019). Moliya: Darslik.
8. Malikov T, Haydarov N. Budjet: tizimi, tuzilmasi, jarayoni. O'quv qo'lanma, Toshkent “IQTISOD-MOLIYA. 2008.
9. Ўроқов У. Бюджет маблағларидан самарали фойдаланишни таъминлаш йўллари. Т. 2017
10. У Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишнинг устувор йўналишлари- Science and Education, 2022
11. У Ўроқов, Д Ускенбаева. Ўзбекистонда ташаббусли бюджетни жорий этишнинг ташкилий-ҳуқуқий асослари - Science and Education, 2022
12. Ўроқов У, Иргашев И, Файбуллаев О. Фуқаролар иштирокидаги маҳаллий бюджет. 2022

13. UY O'roqov, JA Yomg'Irov. Mahalliy byudjetlar barqarorligini ta'minlash masalalari - Central Asian Research Journal for Interdisciplinary ..., 2022
14. Ўроқов УЮ. Маҳаллий бюджетлар шаффофлиги ва очиқлигини таъминлашнинг устувор йўналишлари. Бизнес-Эксперт журнали. 2020;4.
15. Ўроқов У. Ғайбуллаев О. Ўзбекистон Республикасида бюджет тизими ва жараёни: ўқув қўлланма. Тошкент: Baktria press. 2016.
16. Уроков У. Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишга оид назарий қарашлар. Республика илмий-амалий конференция. ТМИ 2020.
17. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий барқарорлигини белгиловчи кўрсаткичлар. 2020
18. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар даромадларини шакллантиришнинг самарали йўллари. 2017
19. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар даромад базасини кенгайтириш масалалари. Республика ўқув юртлараро конференция тўплами. ТМИ-2009 йил (Vol. 18).
20. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақиллигини оширишнинг замонавий муаммолари. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. ТМИ 2022 йил.
21. У Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақиллигини оширишнинг ҳуқуқий асослари.- Science and Education, 2023
22. G'aybullayev O, O'roqov U. O'zbekiston Respublikasida budjet tizimi va jarayoni. O'quv qo'llanma. T.: Baktriapress. 2016;168.
23. Xaydarov N. Soliqlar va soliqqa tortish masalalari. O'quv qo'llanma. Toshkent: Akademiya. 2007.
24. Хайдаров НХ. Маҳаллий бюджетлар: муаммо ва инновацион ечимлар. Ўзбекистон статистика ахборотномаси” илмий электрон журнали. 2020.
25. Хайдаров Н. Доходы местных бюджетов и пути их укрепления. “Молия” илмий журнали. 2022.
26. Хайдаров Н. Маҳаллий бюджетларнинг даромад манбалари. халқаро илмий-амалий конференция 2022.
27. Хайдаров Н. Маҳаллий бюджетлар даромадини барқарорлаштириш йўллари. халқаро илмий-амалий конференция мақолалар тўплами (Vol. 2022).
28. Masharipov I.B. MODERNIZATION OF THE ELECTORAL SYSTEM IS A FACTOR IN THE DEVELOPMENT OF CIVIL SOCIETY. The Way of Science International scientific journal. 2020. 6 (76)

